

**“Tasdiqlayman”**

Transport vazirligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi raisi

  
D. Yakubova

2024-yil 30-aprel

**Transport vazirligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi yig'ilishining**

**\_\_\_\_\_ -sonli BAYONI**

2024-yil 30-aprel

Toshkent shahri

**Raislik qildi: Yakubova Dilbahor Sharipovna** - O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudi raisi o'rinbosari

**Ishtirok etganlar:** Jamoatchilik kengashi a'zolari (G.Iskandarova, S.Pulatov, T.Qodirov, D.Djalalova), Transport vazirligi xodimlari

**KUN TARTIBI:**

**1. Yuridik bo'limi boshlig'i o'rinbosari J.Murtazayevning hamda bosh yuriskonsulti B.Asrorovning Transport vazirligida ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan ma'ruzalari;**

**2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi;**

**3. O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining 2024 yil 15 yanvardagi 01/33-24-son xati muhokamasi.**

---

*(Yakubova, Murtazayev, Asrorov, Jamoatchilik kengashi a'zolari)*

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Yuridik bo'limi boshlig'i o'rinbosari J.Murtazayev o'z so'zini so'nggi yillarda transport sohasini rivojlantirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida olib bordi. Shu bilan birga, sohaga oid bir qator hujjatlar rus tilida qabul qilingan bo'lib, qayta ko'rib chiqilib, davlat tilida qabul qilish zarurati mavjudligida alohida to'xtalib o'tdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil

10-oktyabrdagi PQ-329-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi temir yo'l ustavini yangi tahrirda tasdiqlash topshirig'i berilgan.

Rus tilida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) standartlari va tavsiyalariga (Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risida Konvensiyaga 1-ilova "Aviatsiya xodimlariga guvohnomalar berish", "Aviatsiya tibbiyoti bo'yicha qo'llanma", "Aviatsiya xodimlariga guvohnomalarni berish bo'yicha davlat tizimini tashkil etish va ushbu tizimni boshqarish bo'yicha qo'llanma") muvofiqlashtirgan holda davlat tilida qabul qilish zarurati yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" 2023-yil 25-dekabrdagi O'RQ-886-son Qonuniga muvofiq, shuningdek, yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'implarni undirish maqsadida ushbu yig'implarni undirish tartibi belgilanishi lozim.

Kengash e'tiboriga yuqoridagilarni bajarish maqsadida ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari taqdim etildi.

Jumladan, Yuridik bo'limi boshlig'i o'rinbosari J.Murtazayev quyidagi loyihalar yuzasidan taqdimotlar o'tkazdi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti Ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'implarni undirish to'g'risida"gi qarori.

O'z navbatida, Yuridik bo'limi bosh yuriskonsulti B.Asrorov O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida tibbiy xulosa berish to'g'risidagi aviatsiya qoidalari (O'zR AQ-67) loyihasi to'g'risida so'zlab berdi.

Kun tartibidagi masalalarni batafsil muhokama qilish jarayonida Kengash a'zolari taqdim etilgan hujjatlar loyihalari bo'yicha bir qator savol va takliflar bilan murojaat etdi, jumladan:

***Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti Ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi bo'yicha:***

O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti Ustavining (keyingi o'rinlarda - Ustav) 43 - bandida Temir yo'lning O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiradigan huquqlari belgilangan. Shu jumladan, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda ichki, eksport, import, tranzit yo'nalishlarida (qatnovda) istisno tariflarni belgilash; alohida yo'nalishlarda yukning amalda bosib o'tilgan masofa uchun hisob-kitob tartibini belgilash; yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajni

tashish bilan bog'liq qo'shimcha ishlar va xizmatlar uchun to'lovning qolgan stavkalari shartnoma asosida belgilanishi; temir yo'l yuklarni tashish bilan bog'liq qo'shimcha ish va xizmat operatsiyalari uchun, ya'ni umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'llariga vagonlarni qo'yib berish va qaytib olish, manyovr ishlari, yuklarni o'lchash, vagonlarni yuvish va dezinfeksiya qilish, nomenklatura yuklarini qo'riqlash bo'yicha majburiy to'lov stavkalarini tasdiqlash. Kengash a'zolari tomonidan tariflar, hisob – kitoblar va majburiy to'lov stavkalarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan ham kelishish tavsiya etildi.

O'zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti Ustavining 132-bandida universal vagonlar (yopiq vagonlar, yarim ochiq vagonlar, platformalar) bekor turib qolganda jarima undirilishi va jarimalarning miqdorlari belgilangan. Kengash a'zolari tomonidan ushbu jarimalar faqat umumiy foydalanish temir yo'l vagonlari uchun yoki boshqalarning vagonlari uchun ham tadbiiq etilishiga aniqlik kiritish so'raldi.

Bugungi kunda Temir yo'l transportida yuklarni tashish bilan bog'liq barcha tijoriy xujjatlar "Yagona darcha" tizimi orqali elektron shakilda rasmiylashtirilishini inobatga olib, yuk jo'natuvchi yoki qabul qiluvchi tomonidan Temir yo'lga, tashuvchiga, aralash tashishlarda esa – aralash tashishlar operatoriga davolar va talablar elektron shakilda ushbu kompaniyalarning tegishli ramiy saytida ko'rsatilgan elektron manzillar orqali taqdim etilishi mumkinligini belgilash taklif etildi.

***Vazirlar Mahkamasining "Yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'implarni undirish to'g'risida"gi qarori loyihasi bo'yicha:***

Kengash a'zolari tomonidan Yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'implarni undirish tartibining 8-bandida avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'im yuk avtotransport vositasi mulkdori, foylanuvchisi yoki boshqa shaxs tomonidan to'lov tizimlari orqali mustaqil amalga oshiriladi deganda, aynan qanday to'lov tizimlari nazarda tutiladi degan savol berildi.

Shu bilan birga, mazkur qaror loyihasi qabul qilinishi yo'l harakatiqoidabuzarliklari va yo'l-transport hodisalarining kamayishiga, mavjud avtomobil yo'llarini soz holda ekspluatatsiya qilishga hamdafoydalanish muddatini to'liq o'tashiga zamin yaratishi alohida qayd etildi.

***O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida tibbiy xulosa berish to'g'risidagi aviatsiya qoidalari (O'zR AQ-67) loyihasi bo'yicha:***

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizom 2002-yilda qabul qilingan bo'lib, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (IKAO) yangitdan qabul qilingan zamonaviy standartlari va tavsiyalari ("Aviatsiya xodimlariga guvohnomalar berish – 2020-yil", "Aviatsiya tibbiyoti bo'yicha qo'llanma – 2012-yil", "Aviatsiya

xodimlariga guvohnomalarni berish bo'yicha davlat tizimini tashkil etish va ushbu tizimni boshqarish bo'yicha qo'llanma – 2012-yil") talablariga to'liq javob bermasligi qayd etildi.

Yig'ilish qatnashchilari O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida tibbiy xulosa berish to'g'risidagi aviatsiya qoidalarining 8 va 11-banddarida belgilangan nomzodning sog'ligi holatiga ko'ra aviatsiya bilan bog'liq kasbiy vazifalarni bajarishga yaroqliligini aniqlash mezonlari va sog'lik holati yaroqlilik bo'yicha qo'yiladigan talablari aniq va to'liq belgilanishini taklif etdi.


Kengash a'zolari tomonidan berilgan savollarga J.Murtazayev va B.Asrorov tomonidan aniq ma'lumotlar keltirilgan holda batafsil javoblar qaytarildi, shuningdek, yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan bildirilgan barcha taklif va mulohazalar inobatga olinishi ta'kidlab o'tildi.

Yig'ilishda muhokama etilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan Kengash a'zolari e'tiboriga yetkazilgan ma'lumotlar hamda berilgan savollar va bildirilgan takliflarni muhokama etish natijalariga ko'ra Transport vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur loyihalar yig'ilish ishtirokchilari tomonidan ma'qullandi.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan Kengash a'zolariga O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi murojaat qilib, Transport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibiga Assotsiatsiya vakillarini kiritish istagini bildirganligi haqida ma'lumot berildi.

Kengash a'zolari tomonidan Transport vazirligining 2020-yil 28-maydagi 103-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizomga muvofiq Jamoatchilik kengashining tarkibi har 3 yilda tasdiqlanishini inobatga olib, Assotsiatsiya vakillarini Kengashning yangi tasdiqlanadigan tarkibiga kiritish qaror qilindi.

**Kengash kotibi**



**G.Alimbayeva**